O‘ZBEK HUJJATLI KINOSI: TARIX, TAJRIBA VA ZAMONAVIY MUAMMOLAR

Sharafova Gulnoza Rustamovna
O‘z FA San’atshunoslik instituti, “Kino san’ati va audiovizual tadqiqotlar” bo‘limi kichik ilmiy xodimi
ORCID: https://orcid.org/0009-0001-5742-9508
E-mail: gulnozasharafova3@gmail.com
DOI: 10.67620/artdsgn.690015

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek hujjatli kinosining tarixi, zamonaviy rivojlanish tamoyillari va sohadagi dolzarb muammolar tahlil qilinadi. Muallif so‘nggi yillarda yaratilgan tarixiy, biografik hamda ekologik hujjatli filmlar misolida hujjatli kinoning dramaturgik va badiiy xususiyatlarini yoritib beradi. Shuningdek, maqolada mavzu bir xilligi, texnik cheklovlar va hujjatli kinoni tomoshabinga yetkazish tizimidagi kamchiliklar ko‘rsatib o‘tilib, o‘zbek hujjatli kinosini rivojlantirish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.*

Kalit so‘zlar: *O‘zbek hujjatli kinosi, kinoshunoslik, hujjatli film dramaturgiyasi, qahramon obrazi, biografik film, film-portret, xronika, “shaxs va davr” konsepsiyasi, ekologik film, zamonaviy kino muammolari, audiovizual manba, sun’iy intellekt.*

Аннотация. *В данной статье анализируются история становления и развития узбекского документального кино, современные тенденции его развития, а также актуальные проблемы отрасли. На примере документальных фильмов исторической, биографической и экологической направленности, созданных в последние годы, автор раскрывает особенности драматургического построения, художественных средств выразительности и специфику жанра. Кроме того, в статье рассматриваются однообразие тематики, ограниченность технических возможностей и проблемы системы распространения документальных фильмов среди зрителей. В заключение выдвигаются предложения, направленные на повышение художественно-эстетического потенциала узбекского документального кино, обеспечение тематического разнообразия и расширение его зрительской аудитории.*

Ключевые слова *узбекское документальное кино, киноведение, драматургия документального фильма, образ героя, биографический фильм, фильм-портрет, хроника, концепция “личность и эпоха”, экологический фильм, проблемы современного кино, аудиовизуальный источник, искусственный интеллект.*

Abstract. *This article examines the history of the formation and development of Uzbek documentary cinema, contemporary trends in its development, and the key challenges facing the field. Drawing on historical, biographical, and environmental documentaries produced in recent years, the author explores the genre’s dramaturgical structure, artistic means of expression, and distinctive characteristics. The article also addresses the lack of thematic diversity, limited technical capabilities, and shortcomings in the distribution and dissemination of documentary films to audiences. Finally, the author proposes measures aimed at enhancing the artistic and*

aesthetic potential of Uzbek documentary cinema, promoting thematic diversity, and expanding its audience.

Keywords: *uzbek documentary cinema, film studies, documentary film dramaturgy, hero image, biographical film, portrait film, chronicle, "person and era" concept, ecological film, contemporary cinema issues, audiovisual source, artificial intelligence.*

“Hujjatli” (ing. documentary) atamasi dastlab, 1920-yillarning oxirida qo‘llanila boshlandi [2; 70]. 1926-yil 8-fevralda “The New York Sun” gazetasida chop etilgan Robert Flahertining “Moana of the South Seas” asariga taqrizda Jon Grierson uning “hujjatli ahamiyatini” qayd etadi. Biroq, Griersondan oldin ham, bu atama Fransiyada sayohat paytida olingan kadrlarga asoslangan filmlarni tasvirlash uchun ishlatilgan. Keyinchalik Griersonning o‘zi ta’rifining fransuzcha ildizlariga ishora qiladi: 1933-yilda u “Hujjatli prodyuser” essesida hujjatli filmni “voqelikni ijodiy takomillashtirish” deb ta’riflaydi. Sobiq sovet ittifoqida “hujjatli film” tushunchasi birinchi marta tanqidchilar Nikolay Lebedev va Vladimir Erofeyev tomonidan kiritilgan edi. 1926-yil avgust oyida ular Fransiyada keng qo‘llanilganligini ta’kidlab, birinchi marta o‘z maqolalarida ushbu atamani qo‘llay boshladilar. 1926-yil 10-dekabrda Inqilobiy kinematograflar uyushmasi (ARC) a‘zolarining yig‘ilishida o‘quv kinosiga bag‘ishlangan nutqida V.Erofeyev “badiiy va hujjatli kino” haqida gapirdi. O‘sha vaqtgacha rus tilida keng tarqalgan “fantastik bo‘lmagan film” ta’rifi vaqt o‘tishi bilan qo‘llanilmay qolgan edi [4; 130].

Ilk hujjatli filmlar sirasiga aka-uka Lyumerlarning 1895-yildagi “Fabrikadan ishchilarning chiqish” yoki “LaSota vokzaliga poyezdning kelishi” filmlari reportaj xronikasi bo‘lsa, ularning 1986-yildagi “NY broadway at UNION square” filmi hujjatli kuzatuvning boshqa turi “maishiy lavhalar” hisoblanadi.

Zamonaviy hujjatli kino bugungi kunda tadqiqot uchun nihoyatda qiziqarli yo‘nalishlardan biridir. Buning asosiy sabablaridan biri hujjatli kino janri ko‘pchilik tomonidan oson va tushunarli hodisa sifatida qabul qilinishidir. Bugungi kunda ko‘plab blogerlar o‘z reportajlarini “film” deb atab, ularni hujjatli kino janriga kiritishga urinmoqdalar (dunyo tajribasida). Biroq hujjatli kino haqida so‘z borganda, avvalo, yetarli darajadagi professional yondashuvga e’tibor qaratish lozim. Badiiy-sahnalashtirilgan asar bo‘lmagan har qanday videomaterialni hujjatli film deb atash to‘g‘ri emas. Hujjatli filmni to‘laqonli kino asari, san’at namunasi sifatida baholash imkonini beradigan asosiy jihatlardan biri — mualliflik pozitsiyasi va o‘ziga xos badiiy kino tilining mavjudligidir. Shu nuqtayi nazardan, hujjatli kinodagi janr tasnifi doimo shartli xususiyatga ega. Hujjatli kino film-portret, film-taassurot, film-kuzatuv, film-eskiz yoki hatto metaforik film shaklida bo‘lishi mumkin. Biroq ularning barchasida badiiy til va ijodiy ahamiyat hal qiluvchi o‘rin tutadi.

O‘zbekistonda badiiy filmlarga nisbatan hujjatli kinolar ko‘proq suratga olinadi. Yiliga o‘rtacha 40 dan ortiq hujjatli filmlar ekranga chiqadi. Shuningdek, mamlakatning hujjatli (xronikal) yilnomasi ham yuritilmoqda. O‘zbek hujjatli film yaratuvchi ijodkorlar mamlakatimizning buyuk tarixi, ulug‘ ajdodlarimiz hayotiga bag‘ishlangan filmlarga ko‘p bor murojaat qilishgan. Tarixiy voqealar, urf-odat va qadryatlarga bag‘ishlangan, siyosiy hamda ijtimoiy o‘zgarishlarga urg‘u berib, hikoya qiluvchi rekonstruksiya filmlar son jihatdan salmoqli o‘rin egallaydi. Mamlakatimiz hujjatli kinoijodkorlarining sevimli janri-madaniy deb ataluvchi filmlardir. Ularda xalqimizning boy o‘tmishi, buguni, millatimizning ming yillar silsilasidagi an’analari, hunarmandchiligi ochib beriladi. Bundan tashqari turistik salohiyatni oshirish ahamiyatiga ega bo‘lgan Samarqand, Buxoro va Xiva kabi qadimiy shaharlar go‘zalligi haqida so‘zlovchi filmlarimiz bisyor.

Tarixiy, madaniy mavzuda yaratilayotgan hujjatli kinolar bugun uchun muhim ahamiyat kasb etadi. “Albatta, san’at milliy kinoning tarixsiz, ma’naviy qadryatlarsiz, xotiraga aylangan o‘tmishsiz mavjud bo‘lolmaydi, shu o‘rinda buni zamonaviy milliy kinoning dolzarb masalasi deya qarash lozim”, deb yozgan edi taniqli kinoshunos Nigora Karimova [3; 122]. Bugungi kunda o‘zbek hujjatli kinosi ana shu vazifani bajarish yo‘lidan bormoqda.

O‘zbekiston hujjatli kinosining ham tarixiy, evrilishlar yo‘li, yutuqlari va muammolari mavjud. Ilk hujjatli filmlarimizda xalq turmushi, mehnat jarayonlari, ijtimoiy o‘zgarishlar tasvirlangan bo‘lsa, bugungi kunga kelib mavzular ko‘lami kengaygan. Tarixiy xotirani tiklashga qaratilgan kartinalar bugungi davr o‘zbek hujjatli kinosining muhim yo‘nalishiga aylandi. Shunday kartinalardan biri – “Bahodir Yo‘ldoshev: Teatr odam” klassik hujjatli film dramaturgiyasi asosida yaratigan. Uning zamirida qahramon bilan yaqindan tanishtirish, ijod yo‘li, meros va xotirasini saqlashdek mas’uliyat bilan tomoshabinni biografik hikoya orqali chuqur ma’naviy xulosaga olib keladi. “Bahodir Yo‘ldoshev: Teatr odam” — bu oddiy biografik film emas. U san’atkorning ruhiy portretidir. Filmning markaziy g‘oyasi sarlavhaning o‘zidanoq aniq namoyon bo‘ladi — “Teatr odam”.

Badiiy kadrlar va arxiv materiallari orqali reissyor va ijodiy jamoa Bahodir Yo‘ldoshevning butun borlig‘i, ruhiyati va hayot tarzi teatr bilan chambarchas bog‘langanini ko‘rsatib bergan. Film dramaturgiyasi quyidagi muhim qirralarga tayanadi: Shaxs va Rejissura: Film Yodgor Sa’diyev, Erkin Komilov va boshqa taniqli san’atkorlarning xotiralari, rejissyor bilan ishlash jarayonidagi kechinmalari orqali Usta ijodkorning talabchan, lekin shu bilan birga nihoyatda hassos tabiatini ochadi. Sahna ortidagi hayot: Arxiv kadrlarida Bahodir Yo‘ldoshevning repititsiyalar paytidagi qiyofasi — uning nigohi, harakatlari va aktyorlar bilan muloqot qilishi alohida dinamika beradi. “Diydor” teatri davri: Filmda rejissyor asos solgan va umrining oxirgi yillarida jon kuydirgan “Diydor” yoshlar eksperimental teatr-studiyasiga alohida urg‘u berilgan. Bu qism orqali uning ustozlik maktabi va kelajak avlodga qoldirgan merosi ochib beriladi. Aslida hujjatli film uchun qahramon tanlash masalasi juda muhim sanaladi.

Aynan qahramonlar hikoyalari orqali rejissyor keng mavzular va g‘oyalarni ochib beradi hamda tomoshabinga ularni yaqin va tushunarli qiladi. Hujjatli filmning muvaffaqiyati ko‘pincha qahramonlarning ekranda qanchalik chuqur va samimiy tasvirlanganligiga bog‘liq. Qahramonlarni izlash murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, rejissyordan inson psixologiyasini tushunishni va o‘tkir sezgini talab qiladi. Izlash ijtimoiy tarmoqlar, professional jamiyatlar, shaxsiy aloqalar yoki ma’lum bir muhitga kirib borish orqali amalga oshirilishi mumkin. Ammo har qanday qiziqarli inson film uchun yaxshi qahramon bo‘la olmaydi.

Qahramon tanlash jarayonida bir nechta omillar hisobga olinadi. Birinchi navbatda, inson kamerada tabiiy bo‘la olish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Hayotda yorqin va qiziqarli insonlar kamera oldida o‘zini yo‘qotib qo‘yishi yoki sun’iylikka o‘tishi mumkin. Shuningdek, film uchun uzoq muddatli hamkorlikka tayyorlik ham muhimdir.

Qahramonlar bilan ishonchli munosabatlarni o‘rnatish hujjatli suratga olishning asosi hisoblanadi. Bu jarayon ilk uchrashuvdan boshlanib, film ustida ishlash davomida davom etadi. Rejissyor professional masofani saqlash bilan birga insoniy yaqinlikni ham ta’minlashi kerak. Juda rasmiy munosabatlar qahramonning kadrda o‘zini tabiiy tutolmasligiga olib keladi, haddan tashqari yaqinlik esa ob’ektivlikni buzishi mumkin [2; 241]. Millatning qahramonlariga aylangan insonlar—yozuvchilar, san’atkorlar, olimlar haqida hujjatli filmlar yaratish esa alohida izlanish talab etadi.

“Akademik Sodiq Azimov — Quyoshga intilgan alloma” hujjatli filmi ham katta izlanish va mehnat mahsuli ekanligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Ushbu film rejissyori Bahodir Adilov bo‘lib,

filmda O‘zbekistonda yadro fizikasi, yuqori energiyalar fizikasi, yarim o‘tkazgichlar fizikasi va yuqori temperaturali geliomaterialshunoslik sohalariga asos solgan, bu yo‘nalishlarni rivojlantirib, xalqaro miqyosda e’tirof etilgan akademik Sodiq Azimovning hayot yo‘li va ilmiy faoliyati yoritilgan. Rejissyorning katta hayotiy tajribasi, filmni yaratishda olimning farzandlari, shogirdlari, ilm ahlining fikr-mulohazalari, ilmiy manbalar, ko‘plab arxiv materiallari o‘rganilgani seziladi. Montajda sun’iy intellekt imkoniyatlaridan ham unumli foydalanilgan. Dunyoda mavjud bo‘lgan noyob obyektlardan biri Katta quyosh sandoni (KQS) qurilishi tarixi bilan ham ushbu hujjatli kinoni ko‘rish asnosida tanishish mumkin. Ilmiy nuqtai nazardan, film nafaqat biografik material, balki O‘zbekistonda zamonaviy fizika fanining rivojlanish tarixini aks ettiruvchi muhim audiovizual manba sifatida ham ahamiyatlidir. Shuningdek, filmda olimning ilmiy izlanishlari bilan uning insoniy fazilatlari uyg‘un holda tasvirlanadi. Bu esa hujjatli kino dramaturgiyasida “shaxs va davr” konsepsiyasini ochishga xizmat qiladi. Filmning nomlanishidagi “Quyoshga intilgan alloma” iborasi ramziy ma’noga ega. Bu obraz ikki xil talqinga ega: ilmiy ma’no-olimning quyosh energiyasi va fizika sohalaridagi tadqiqotlari. Falsafiy ma’nosi — ilmga, haqiqatga va taraqqiyotga intilish timsoli. Film yoshlarni ilm-fan bilan shug‘ullanishga undaydigan ma’rifiy hujjatli kino namunasidir. Shu jihatdan film: ilmiy merosni ommalashtirish, milliy fan tarixini targ‘ib etish, yosh tadqiqotchilarni ruhlantirish vazifasini bajaradi. “Akademik Sodiq Azimov: Quyoshga intilgan alloma” hujjatli filmi o‘zbek hujjatli kinosida ilmiy shaxs portretini yaratishning muvaffaqiyatli namunalaridan biridir. Film orqali nafaqat bir olimning hayoti, balki O‘zbekiston ilm-fanining muhim davri ham yoritilgan. Asar ilmiy-biografik hujjatli kino sifatida tarixiy, ma’rifiy va estetik qiymatga ega.

Mana shunday qiymatga ega kinolardan biri — “Murod Rajabov. Oq buloqni izladim” hujjatli filmida aktyorning ijodini tahlil etish orqali o‘zbek kinosida xalqona realizm va komik dramaturgiya an’analariga murojaat qilingan. San’atkorning hayoti va ijodi orqali o‘zbek kinosidagi turli davrlar kino jaroyonlari va zamonaviy kino muammolari aks ettiriladi. Eng asosiysi film ijodkorlari aktyorning hayot yo‘lini chuqur o‘rganganligi, mehr ila suratga olishgani, kadr ortida qalb og‘riqlarini anglab ishlashgani ilk kadrlardan filmni yakuniga qadar sezilib turadi. Mana shu filmni ko‘rish asnosida bir xulosaga keldim, nega bugun hayot bo‘lgan, oramizdagi kino afsonalari haqida hujjatli kinolar ular bugun hayot bo‘lgan chog‘ida suratga olinmayapti? “O‘lding, aziz bo‘lding…” deganlaridek, ular vafot etgach emas, hayot chog‘larida ular haqida filmlar yaratilishi, o‘zlari ham ko‘rib millat uchun kerakli ekanliklarini anglashlari lozim!

Shuningdek, Saida’loxon Mas’udxonovning “Vali G‘afurov. Igna bilan yozilgan roman” hujjatli filmi yozuvchi, pedagog va Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi Vali G‘afurovning murakkab hayot yo‘li va ijodiy merosini tadqiq etishga bag‘ishlangan. Asarning dramaturgik markazini qahramonning urushda ko‘rish qobiliyatidan ayrilgach, hayotga moslashishi va ijod orqali o‘zligini qayta namoyon etishi tashkil qiladi. Filmning muhim badiiy-kontseptual yechimi — “igna” obrazining metaforik funksiyasidir. Brayl yozuvida foydalanilgan igna nafaqat yozuv vositasi, balki qahramonning irodasi, sabr-toqati va ma’naviy qarshiligining ramziga aylanadi. Shu orqali filmda jismoniy cheklov va insonning intellektual-ijodiy imkoniyatlari o‘rtasidagi qarama-qarshilik ochib beriladi.

Kinematografik jihatdan asar arxiv materiallari, biografik ma’lumotlar, xotiralar va vizual detallar uyg‘unligiga tayanadi. Tarixiy hujjatlarning badiiy obrazlar bilan birikishi qahramon shaxsini individual taqdir doirasidan chiqarib, uni milliy xotira va tarixiy ong kontekstida talqin qilish imkonini beradi. Filmning asosiy g‘oyaviy xulosasi — insonning jismoniy imkoniyatlari cheklanishi uning tafakkuri, ma’naviyati va ijodiy salohiyatini cheklamaydi, degan falsafiy

qarashdir. Shu jihatdan filmni oddiy biografik portret emas, balki inson irodasi, xotira va ijod fenomenini tadqiq etuvchi falsafiy-biografik hujjatli asar sifatida baholash mumkin.

Umuman, filmning ilmiy-badiiy qiymati Vali G‘afurov shaxsiyati orqali urush, inson taqdiri, ma’naviy matonat va ijodkorlik masalalarini yaxlit konsepsiyada ifodalashida namoyon bo‘ladi. Bu filmda sun’iy intellekt imkoniyatlaridan o‘z o‘rnida(me’yorda) qo‘llanilmagani seziladi.

2025-yilda yaratilgan filmlarda quyidagi tasviriy vositalar keng qo‘llanilgan:

- arxiv, kino va foto materiallari;
- intervyu va guvohlik lavhalari;
- rekonstruksiya elementlari;
- tabiat va muhit tasvirlari;

2025-yilda ijtimoiy muammolarni yoritishda hujjatli kino imkoniyatlaridan unumli foydalanishga bo‘lgan harakatlarni kuzatish mumkin. Aslida hujjatli kino o‘zida hamisha dolzarb muammolarni ham aks ettirishi lozim.”Inson qadri” turkumidan o‘rin olgan bir qancha hujjatli filmlar “Hamroh”, “Mahbora: Ona simfoniyasi”, “O‘z chirog‘ini yoqqanlar”, “Toyloq tajribasi” nomli hujjatli filmlar bugun uchun dolzarb muammolarni yoritgan, biroq imkoniyati cheklangan insonlar taqdiri, bugun ularga yaratilayotgan sharoitlar haqida so‘zlovchi ushbu filmlarning ko‘rsatuv darajasida bo‘lib qolgani achinarli. Bir nechta hujjatli filmlarda Mehribon Alizoda ismli ijodkorimizni ssenariylar muallifi sifatida tanidim. Unda qoliplardan tashqarida bo‘lishga intilish borligi seziladi. Aynan mana shu ijodkor ssenariysi asosida yaratilgan “O‘z chirog‘ini yoqqanlar” filmida ijodiy yondashuv borligini ko‘rish mumkin. Aslida har qanday ijtimoiy mavzuni ham chinakam kino asar darajasiga chiqarish mumkinligini yaqinda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tashabbusi bilan rejissyor Shokir Holiqov tomonidan suratga olingan “Fonus” loyihasi doirasidagi qisqa metrajli filmlar misolida guvohi bo‘ldik. Mablag‘, kuch, vaqt sarflab film suratga olinar ekan va bu filmlar ertaga bugun haqida ma’lumot berar ekan, ularni suratga olishda mas’uliyat va vijdonan yondashish muhim!

Rejissyor Shahzod To‘xtaboyev tomonidan yaratilgan “Omon qolish elementlari” turkumidagi hujjatli filmlar zamonaviy o‘zbek hujjatli kinosida inson va tabiat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni yoritishga qaratilgan turkum asardir. Suv, havo va tuproq kabi inson hayoti uchun zarur bo‘lgan unsurlarni markazga qo‘yib, ekologik va ijtimoiy muammolarni tahlil qiladi. “Omon qolish elementlari” turkumi o‘zbek hujjatli kinosida ekologik hujjatli film yo‘nalishining rivojiga xizmat qiladi. Film nafaqat san’at asari, balki ijtimoiy ogohlikni oshiruvchi hujjatli tadqiqotdir.

Demak, milliy hujjatli kinematografiya bir joyda to‘xtab qolmayapti — u jadal sur’atlarda rivojlanmoqda. Uning rivojlanish yo‘nalishlari, materialni taqdim etish va ochib berish usullari tobora rang-baranglashib bormoqda. Aslida, aynan mana shu uslubiy xilma-xillik, har qanday narrativ shaklda maksimal darajada moslashuvchan va variativ harakat qilish imkoniyati hujjatli kinoning rivojlanishidagi asosiy qonun va ayni paytda uning muhim shartidir.

Rejissyor istalgan kichik janrni, o‘z fikrini, ba’zan esa o‘ziga xos axloqiy pozitsiyasini ifodalashning istalgan usulini tanlashi mumkin. Yana bir muhim omil shundaki, badiiy kinematografiyada sinovdan o‘tkazilayotgan ko‘plab texnik va texnologik yangiliklar keyinchalik hujjatli kinoda ham qo‘llanila boshlaydi. Natijada hujjatli filmlar xalqaro blokbasterlardan qolishmaydigan darajada tomoshabop bo‘lib bormoqda (dunyo kinosida). Hatto hujjatli kino olamining o‘ziga xos blokbasterlari va jahonga mashhur durdonalari ham paydo bo‘lmoqda.

Bugun eng muhimi — muallifning bu dunyoga aytadigan gapi bo‘lishi kerak. Fikrni ifodalash va narrativ qurish usullari esa nihoyatda ko‘p. Shu jihatdan hujjatli kino badiiy filmlarga

xos bo‘lgan ko‘plab qoliplardan xoli. Hujjatli kinoga bo‘lgan qiziqishning izchil ortib borayotgani esa yaqin kelajakda yanada qiziqarli va yorqin asarlar yaratilishidan dalolat beradi. Demak, bizda tomosha qilishga, ilhom olishga va bahslashishga arzigulik filmlar yaratilishiga umid bor.

O‘zbek hujjatli kinosi so‘nggi yillarda rivojlanib borayotgan bo‘lsa-da, unda bir qator muammolar va kamchiliklar mavjud. Ushbu muammolar ijodiy jaroyonlarda, texnik ishlarda, moliyaviy va targ‘ibot masalalarida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Hujjatli kinoda mavzular takrorlanishi eng katta muammolardan biridir. Asosan tarixiy shaxslar, yubileylar yoki rasmiy tadbirlar haqida filmlar ko‘p suratga olinadi. Natijada ekologiya, urbanizatsiya, yoshlar muammolari kabi dolzarb mavzular yetarli darajada yoritilmay qolmoqda. Hujjatli film faqat faktlarni ketma-ket joylashtirish emas, balki dramaturgik qurilishga ega bo‘lishi kerak. Bizning hozirgi hujjatli kinolarimizda esa ba’zan syujet rivoji, obraz yaratish kabi elementlar sust bo‘ladi. Natijada film ko‘proq reportaj yoki xronika ko‘rinishida qolib ketadi. Sun’iy intellektdan ham me’yordan tashqari foydalanish kuzatilmoqda.

Dunyoda hujjatli kino shiddat bilan rivojlanmoqda: dron tasvirlari, animatsiya, grafik rekonstruksiya, interaktiv elementlar keng qo‘llanilmoqda. O‘zbek hujjatli filmlarida esa ba’zan texnik imkoniyatlar cheklangan bo‘lib, tasvir sifati va montaj uslublari zamonaviy darajaga to‘liq mos kelmaydi. Hujjatli filmlar asosan davlat buyurtmasi asosida suratga olinadi. Xususiy moliylashtirish deyarli yo‘q. Bu esa ijodkorlar uchun bir qancha cheklovlarni qo‘yadi (masalan mavzu tanlashda).Takror-takror bitta mavzuga qaytish holatlari ko‘p uchraydi.

Bugun hujjatli kinolarimiz keng tomoshabinga yetib bormaydi. Ular telekanallarda namoyish etilmaydi, festivallarda juda kam ishtirok etadi. Kinozallarda namoyish qilish, internet platformalar orqali tarqatish tizimi to‘liq rivojlanmagan. Yetuk mutaxassislarning yetishmasligi filmlarning badiiy saviyasiga ta’sir ko‘rsatadi.

“So‘nggi yillarda bizning milliy kino haqiqatan ham “uyg‘ondi”. Yuqori sifatli, zamonaviy filmlar paydo bo‘ldi va buning uchun minnatdorchilik bildirmoqchiman. Biroq meni nima qilishimiz kerak degan savol tashvishlantirmoqda: kinematografiyani rivojlantirish uchun bizga yana nima kerak? Agar biz tariximizni ulug‘lamoqchi bo‘lsak va xalqimizning milliy g‘ururini ko‘tarmoqchi bo‘lsak, buni birinchi navbatda kino orqali amalga oshirish kerak...” [1], – degan edi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev kinoijodkorlar bilan uchrashuvida.

Mazkur dolzarb masala O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San’atshunoslik instituti “Kino san’ati va audiovizual tadqiqotlar” bo‘limining **“Zamonaviy O‘zbekiston kino san’atida tarixiy xotira reprezentatsiyasi”** mavzusidagi tadqiqot doirasida ilmiy jihatdan o‘rganildi va muammoning yechimiga oid qator takliflar ishlab chiqildi: O‘zbek hujjatli kinosi ham boy tarix va katta ijodiy salohiyatga ega. Biroq uning rivojlanishi uchun yana nimalar qilish kerak? Avvalo hujjatli kinoni suratga olish va montaj jarayonlariga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, yangi mavzularni izlash, mustaqil prodyuserlikni rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish muhim hisoblanadi. Shundagina hujjatli kinoda ham jamiyat hayotini chuqur aks ettiruvchi va xalqaro maydonda raqobatbardosh kuchga ega bo‘lgan filmlar yaratish imkoniga ega bo‘lishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev.Sh.M.“Oxirgi yillarda yaratilgan kinolarimizning soni kam bo‘lsayam, ma’naosi bor-Shavkat Mirziyoyev” [Elektron manba] // Gazeta.uz.-2020.—20 noyabr.
2. Бэдли Х. Техника документального кинофильма / Пер. с англ. Ю.Л. Шер. — М.: Искусство, 1972. — 240 с.

3. Каримова Н. Игровой кинематограф Узбекистана./ Н.Каримова; отв.ред. Д.Тешабаев.-Т.: Изд.журнала “San’at”,2016.-216 с.
4. Прожико Г. С. Экран мировой документалистики (очерки становления языка зарубежного документального кино). — М.: ВГИК, 2011. — 222 с.